

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“Informatika va axborot texnologiyalari” kafedrasи**

**D.N.Xamroyeva**

**«INFORMATIKA O`QITISH METODIKASI»**

**KURSI BO`YICHA**

**TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

**( bakalavr bosqichi talabalari uchun)**

**Navoiy - 2011**

D.N.Xamroyeva «Informatika o`qitish metodikasi» kursi bo`yicha ta’lim texnologiyasi.  
Navoiy, 2011 y.

«Informatika o`qitish metodikasi» o`quv kursi bo`yicha o`qitishni texnologiyalashtirish qoidalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilgan ta’lim texnologiyasi keltirilgan.

**Taqrizchilar:**

Pedagogika fanlari nomzodi, O`tapov T.U.

Fizika-matematika fanlari nomzodi, Xudoyorov Sh.J.

## KIRISH

«Informatika o`qitish metodikasi» o`quv kursi bo`yicha ta`lim texnologiyasi ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarni loyihalash texnologiyalarini asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur qo`llanma kirish, ta`lim texnologiyasining konseptual asoslari hamda ma`ruza, amaliy mashg`ulotlarda o`qitish texnologiyalaridan tarkib topgan.

Ta`lim texnologiyasining konseptual asoslari bo`limida «Informatika o`qitish metodikasi» o`quv kursini o`qitishning dolzarbliji asoslangan, mazkur kursning tuzilmasi keltirilgan hamda kurs bo`yicha o`qitishning mazmuni ochib berilgan. Shu bilan birga o`qitish, kommunikatsiya, axborot va ta`lim jarayonini boshqarish usullari va vositalarining konseptual asoslari yoritilgandir.

So`ngra kurs bo`yicha o`qitish texnologiyalarini loyihalashtirilgan:

- 1) ma`ruza mashg`ulotlarini olib borishning kirish-ma`ruza, mavzu asosida ma`ruza, muammoli ma`ruza, munozarali ma`ruza va yakunlovchi ma`ruzalar ko`rinishlari qo`llanilishi;
- 2) amaliy mashg`ulotlarni olib borishning topshiriqlarni individul tarzda yoki guruhda bajarilishi, nazariy bilimlar asosida bilimlar va ko`nikmalarni chuqurlashtirishga yo`naltirilgan amaliy topshiriqlarni bajarilishi.

Kursning strukturasini mundarija bilan birgalikda sxema ko`rinishida ham berilganligi kitobda yo`nalishni yanada osonlashtiradi.

Mazkur ta`lim texnologiyasi barcha oliy o`quv yurtlarida, malaka oshirish kurslarida, o`qitish texnologiyasida ko`zda tutilgan sharoitlar va vaqtin mavjud bo`lgan holda «Informatika o`qitish metodikasi» kursini olib borishda o`qituvchi tomonidan qo`llanilishi mumkin.

### **1. «Informatika o`qitish metodikasi» kursining dolzarbliji va o`qitish strukturasi**

---

Informatika o`qitish metodikasi pedagogikaning informatika fanini umumta`lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari informatika va axborot texnologiya fanlarini o`qitish qonuniyatlarini tadqiqot qiluvchi bo`limi hisoblanadi. Informatika fanini o`qitish quyidagi maqsadni ko`zda tutadi: bo`lajak o`qituvchilarni informatika fanini ijodiy o`qitish va o`zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo`llash bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalari bilan qurollantirish; bo`lajak o`qituvchilarni informatika sohasi bo`yicha turli tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o`tkazishga tayyorlash; bo`lajak o`qituvchilarni ta`lim sohasini axborotlashtirishning yo`llari va ulkan istiqbollari haqida tasavvurlarini rivojlantirish hamda chuqurlashtirishdir.

“Informatika o`qitish metodikasi” fani “Informatika va axborot texnologiyalarini” va “Zamonaviy dasturlash tillari” kabi fanlar bilan uzviy bog`liq bo`lib, ushbu fanlarning ko`p

bo`limlari “Informatika o`qitish metodikasi” o`quv kursini to`ldiradi va shu bilan birga bakalavrarning fan bo`yicha olgan bilimlarini kengaytiradi.

“Informatika o`qitish metodikasi” fanini o`qitishda ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalilanildi. Amaliy mashg`ulot darslari bevosita kompyuter bilan jihozlangan xonalarda olib boriladi.

#### 4. Mustaqil ta’lim va referatlar yozish uchun tavsiya etiladigan mavzular

---

1.	Tahrirlashni imkoniyatlari va qo'llasnishi. Buyruqlar tizimi. Tasvir chizish.
2.	Tasvirni tahrirlash va formatlash.
3.	Tasvirni chop etish va qo'shimcha imkoniyatlari
4.	Ma'lumotlar va ularning turlari. Ma'lumotlar ombori imkoniyatlari.
5.	Ma'lumotlar omborining qo'llanilishi. Asosiy tushunchalari.
6.	Ma'lumotlarni to'plash, izlash, joylashtirish va qayta ishslash usullari. Ma'lumotlar ustida amallar.
7.	Elektron jadvallar qo'llanilishi va imkoniyatlari. Elektron jadvalning asosiy tushunchalari: satr, ustun, yacheyska.
8.	Elektron jadvalni buyruqlar tizimi.
9.	Jadvalni saqlanishi. Formula bo'yicha hisoblash. Elektron jadvalni saqlanishi.
10.	Formula bo'yicha hisoblash. Elektron jadvalni qo'shimcha imkoniyatlari.
11.	Algoritm tushunchasi. Algoritmnинг asosiy xossalari.
12.	Algoritmnинг tasvirlash usullari. Blok-sxemasi. Chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi algoritmlar.
13.	Dasturlash turlari va ularning qo'llanishi. Dasturlash tillarining turlari. Tilning alifbosi. Son, ifoda, standart funksiyalar. Tilning bu'ryuqlari.
14.	Chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi dasturlar tuzish. Belgili miqdorni qayta ishslash. Massiv tushunchasi. Qism dastur.
15.	EHMDa masala echish bosqichlari. Amaliy va o'quv mazmundagi masalalarni echish. Hisob tajribalarini o'tkazish.
16.	Zamonaviy informatsion texnologiyaning inson va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida informatizasiyalash rivojlanishning kelajagi. Axborot uzatishning informatsion tizimi.

## **5.Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro`yxati**

---

### **A D A B I Y O T L A R      R O ` Y X A T I**

1. И.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008. – 176 б.
2. I.Karimov. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralar. – Т.:O’zbekiston, 2009. – 56 b.
3. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. (O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” gi qonunlari). – Т.: “Sharq”, 1998, - 64 b.

### **ASOSIY ADABIYOTLAR**

1. Юлдашев У.Ю., Закирова Ф.М. Методика преподавания информатики. Учебник для педагогических вузов. – Т. 2005.
2. Boltayev B. IHTA. 8-sinf. Maktab o’quvchilari uchun darslik. – Т. 2002.
3. Boltayev B. IHTA. 9-sinf. Maktab o’quvchilari uchun darslik. – Т. 2002.
4. Abduqodirov A., Xaitov A., Shodiyev R. Axborot texnologiyalari. Akademik lisey va kasb – hunar kolledjlar uchun darslik. – Т.: O’zbekiston, 2001 у.
5. Axmedov A. Tayloqov N. Informatika. Akademik lisey va kasb – hunar kolledjlar uchun darslik. – Т.: O’zbekiston, 2001 у. – 272 б.
6. Sattorov A. Informatika va axborot texnologiyalari. - Akademik lisey va kasb – hunar kolledjlar uchun darslik. – Т.: O’zbekiston, 2002 у.
7. Yuldashev U.Yu.,Boqiyev R.R., Zokirova F.M. Informatika. – Т.,2002.
8. Yuldashev U., M.E., Mamarajabov, K.A. Mirvaliyeva POWER POINT 97: O’quv qo’llanma. – Т.,2001. – 32 б.
9. U. Yuldashev, Sh.K.Rahmatullayeva. Microsoft WORD 97: Oquv qo’llanma. – Т., 2001. – 47 б.
10. Yuldashev U. Sh.K.Rahmatullayeva. Internet asoslari: O’quv qullanma. – Т., 2002. – 28 б.
11. Юлдашев У.Ю., Закирова Ф.М. и др. Лабораторные работы по курсу «Информатика». – Т, 2002.

### **QO’SHIMCHA ADABIYOTLAR**

12. T.U.O’tapov “Matematik iqtidorli o’quvchilarni aniqlovchi test topshiriqlarini tuzish va natijalarini qayta ishlash metodikasi”. Т.: “Fan”, - 2007 yil
13. R.R. Boqiyev, N.A. Qayumova “Axborot texnologiyalarini o’qitish metodikasi”. Metodik qo’llanma, - Т:, 2006 yil.
14. Ishmuhamedov R.J., Azizzo’jayeva N.N. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari”.- Т:, 2004 yil.

## **6. O‘quv kursi bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari**

O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lidan rivojlanib, xalqaro maydonda o‘zining munosib o‘rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo‘lini ta’minalash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta’lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog‘liqdir.

Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sifatli kadrlar tayyorlashga qodir milliy asosga qurilgan va jahondagi ilg‘or davlatlar ta’limi taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. 1997 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” milliy ta’lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollarini belgilovchi xujjat sifatida bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda yana bir tarixiy davr boshlanishiga zamin yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati axborot texnologiyalari dasturiy vositalari, ma’lumotlarning axborot bazalari, multimedia asosida ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uzlusiz ta’lim tizimini axborot tarmog‘i bilan ta’minalash asosida jahon andozalariga mos keladigan kadrlar tayyorlash masalalariga e’tiborni susaytirmay kelmoqda. Uzlusiz ta’limga o‘tish sharoitida ta’lim muassasalarining bu sohadagi asosiy vazifalarini aniqlab, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Kompyuterlash tizimini yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlar to‘g‘risida»dagi qarorida pedagogika fani va amaliyoti oldiga «... o‘rt va oliv ta’limning ta’lim standartlariga muvofiq ravishda elektron o‘qitish bazasini yaratish, ta’lim muassasalarining axborot infratuzilmasini shakllantirish, barcha o‘quv muassasalarida ingliz tilini chuqur o‘rgatish, shuningdek, respublika axborot tarmog‘ida lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek tilidan foydalanishning standartlashtirilgan mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish dasturiy chora-tadbirlar...»ni ishlab chiqish yuklatilgan.

Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida»gi PF-3080-sonli farmoni va ushbu farmonni bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 8-iyunda «2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi qarorida juda to‘g‘ri ta’kidlanganidek, uzlusiz ta’lim tizimida, shu jumladan, oliv o‘quv yurtida ta’lim jarayonini tashkil etishning hozirgi holati ilmiy-texnika, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tez o‘sib boruvchi talablariga to‘liq javob bermaydi. Boshqacha qilib aytganda, aksariyat ko‘pchilik mutaxassislar tayyorgarligida axborot texnologiyalarini o‘qitishning modulli tizimi uchun xos bo‘lgan sifatlar - bilimlarning harakatchanligi, mustaqil va tanqidiy fikrlash, har qanday faoliyatda ijodiylik, moslashuvchanlik va h.k. sust ifodalangan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta’lim jarayonidagi sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, ya’ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni yechimini topib ularni amalda keng qo‘llash oliv ta’lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o‘quv jarayonini yaxshilash, o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o‘qitishning zamонави pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalardan keng foydalanish va shu asosda masofadan o‘qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Ta’lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo‘ladi. Bu o‘qituvchining mahoratinigina emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta’lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta’limning uzlusizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo‘lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo‘lsa, ta’lim umumiyligka egadir. Ta’lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim ob’ektiv borliqdagi voqe-

hodisalarning in’ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo‘ladigan tushunchalar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo‘ladi. Ta’limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo‘lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta’lim bir xildir. o‘qituvchi bilim emas, balki ta’lim beradi. Talaba esa ana shu ta’lim jarayonida bilimga ega bo‘ladi. Buning uchun u mustaqil o‘qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo‘ladi, eshitganlari va o‘qitganlarini sintez qiladi. Natijada bilimga ega bo‘ladi.

O‘quv jarayoni bilan bog‘liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o‘qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo‘llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o‘ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishslash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta’lim ustivorligini ta’minlaydi.

Aytilganlardan kelib chiqgan holda «Informatika va axborot texnologiyalari» o‘quv kursi bo‘yicha ta’lim texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy konseptual yondoshuvlarni keltiramiz:

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyat bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqgan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jaryonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jaryonida uning barcha qobiliyatni va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o‘quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o‘zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyatni kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratilik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi sub’ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishslashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta’lim.** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob’ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyatni ta’milanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullari qo‘llash** – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash. Keltirilgan konseptual yo‘riqlarga asoslangan holda, «Informatika va axborot texnologiyalari» kursining maqsadi, tuzilmasi, o‘quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqgan holda, ma’lum sharoit va o‘quv rejasida o‘rnatilgan vaqt oralig‘ida o‘qitishni, kommunikatsiyani, axborotni va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullari va vositalari tanlovi amalgaga oshirildi.

**O‘qitishning usullari va texnikasi.** Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullari, amaliy ishslash usuli.

**O‘qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asolangan frontal, kollektiv va guruh.

**O'qitish vositalari** o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlari.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blis-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birqalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

## **«INFORMATIKA O'QITISH METODIKASI» FANI BO'YICHA MA'RUZA, AMALIY MASHG'ULOTLARIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI**

### **MAVZU. Reyting tizimi va uni o'quv jarayonida qo'llash**

(ma'ruza – 2 soat)

1.1. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni 30-90ta</i>	O'quv soati - 2 soat
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Kirish-mavzu bo'yicha ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. O`quvchilar bilimini tekshirishda reyting tizimi: asosiy vazifalari, joriy etish tamoyillari, asosiy talablar. 2. O`quvchilar bahosini aniqlash tartibi. 3. Baholash tizimi. 4. Nazorat uslub va shakllarni tanlash.
<i>o'quv mashg'ulotining maqsadi</i>	o'quv kursi haqida umumiy tasavvurni berish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>  kursning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish;	<i>o'quv faoliyat natijalari:</i>  kursning maqsadi va vazifalarini aytil bera oladilar;
kursning tuzilmasi, o'quv faoliyatini baholash mezonlari hamda tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati haqida ma'lumot beriladi;	kursning tuzilmasi, o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va baholash shakllarini aytil bera oladilar;
<i>o'quvchilar bilimini tekshirishda reyting tizimi: asosiy vazifalari, joriy etish tamoyillari, asosiy talablar;</i>	<i>o`quvchilar bilimini tekshirishda reyting tizimi: asosiy vazifalari, joriy etish tamoyillari va asosiy talablar haqida tasavvurga ega bo`ladilar;</i>
<i>o`quvchilar bahosini aniqlash tartibi va baholash tizimi muhokama qilinadi;</i>	<i>reyting tizimi va uni o'quv jarayonida qo'llash haqida bahs yurita oladilar;</i>

nazorat uslub va shakllarni tanlash haqida tushuncha beriladi.	Nazorat olishning uslub va shakllarni tanlash haqida tushunchaga ega bo'ladilar.
O'qitish usullari-texnikasi	Ma'ruza, namoyish, blis-so'rov, aqliy hujum, pinbord texnikasi
o'qitish vositalari	ma'ruza matni, kompyuter texnolgiyasi, doska
o'qitish shakllari	frontal, kollektiv ish
o'qitish sharoiti	kompyuter, multimedia proyektor (yoki proyektor va LCD panel)
Monitoring va baholash	Test, og'zaki savollar

### **Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi.**

Faoliy at bosqich-lari	Faoliyatining mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1- bosqich.  Kursga va mavzu ga kirish  (20 min)	1.1. O'quv kursining nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari, tinglovchilar bilimlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova)	Tinglaydilar
	1.2. Mazkur kurs bo'yicha o'rganiladigan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar, ularning uzbekligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiradi. (2-ilova)	Yozadilar, tinglaydilar
	1.3. Birinchi o'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar
	1.4. Blis-so'rov usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni sanab berishni so'raydi(3-ilova)	Tushunchalarni sanab beradilar
2- bosqich.  Asosiy bo'lim  (50 min)	2.1. Mavzu rejasini va tayanch tushunchalar bilan tanishtiradi.(4-ilova)	Tinglaydilar
	2.2. Ma'ruza rejasining 1-3 punktlari bo'yicha tushuntiradi, har bir punkt nihoyasida umumlashtirib boradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi.	Tinglaydilar. konsept qilib boradilar.
	2.3. Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi (Pinbord usulida). Mavzuga oid bo'lgan iboralar olib tashlanib, kerakli tushuncha va iboralar qo'shiladi.	Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. Barcha axborotni tizimlashtiradilar. Konsept qiladilar.
3- bosqich.  Yakun- lovchi  (10 min)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligi ma'lum qiladi.	Savollar beradilar
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.	
	3.3. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi.	Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladilar

## **Mavzuni jonlantirish uchun savollar**

1. Nima uchun o`quvchilar bilimini tekshirishda reyting tizimi kiritilgan?
2. Reyting kiritishda asosiy vazifalar?
3. Reyting nazoratini kiritishda qanday printsiplarga asoslangan?
4. Maktabda informatika bo`yicha reyting nazorati qanday amalga oshiriladi? Akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarida-chi?

### **1-mavzu. Reyting tizimi va uni o`quv jarayonida qo'llash**

#### **Reja:**

1. O`quvchilar bilimini tekshirishda reyting tizimi: asosiy vazifalari, joriy etish tamoyillari, asosiy talablar.
2. O`quvchilar bahosini aniqlash tartibi.
3. Baholash tizimi.
4. Nazorat uslub va shakllarni tanlash.

### **Tayanch iboralar**

Informatika, informatsion jamiyat, informatsion madaniyat, reyting tizimi, asosiy vazifalari, joriy etish tamoyillari, bahosini aniqlash tartibi, baholash tizimi, nazorat uslubi, o`quvchilar bahosini aniqlash tartibi.

### **Pinbord texnikasi**

### ***Pinbord texnikasi***

(inglizchadan: pin – mahkamlash, board – doska) muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashni amalga oshirishga, kollektiv tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi

O‘qituvchi taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z nuqtai nazarlarini bayon qilishni so‘raydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ommaviy aqliy xujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag‘batlantiradi).

Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so‘zdan ko‘p bo‘limgan) sifatida alohida qog‘ozlarga yozadilar va doskaga

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- (1) yaqqol xato bo‘lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- (2) bahsli bo‘lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- (3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilarini aniqlaydilar;
- (4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog‘oz varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;
- (5) ularning o‘zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko‘rsatadilar: kollektivning yagona yoki qarama-qarshi

## Ma’ruzaning mazmuni bo‘yicha ko‘rgazmali slaydlari

Reyting tizimining kiritilishining asosiy vazifasi quyidagilar hisoblanadi.

- O‘quvchilarga UO‘T DTS talabalarini o‘zlashtirish uchun barcha sharoitlar yaratish.
- O‘quvchilar bilim sifatini baholashda xolislik va aniqlikni ta’minalash.
- Ta’lim jarayoni sifat nazoratini xolislashtirish, respublikaning turli regionlarida va turli tipdagi maktablarning o‘quv natijalarida va turli tipdagi maktablarning o‘quv natijalarini solishtirish
- O‘quvchilarning fikrlash faoliyatini aktivlashtirish, o‘zaro o‘qishda yuqori yutuqlarga erishishlari kabi ijobjiy qiziqish tug`dirish, o‘quvchilarda o‘quv ishida mustaqil bo`lishga intilishni rag`batlantirish,
- O‘quvchi mehnat natijalarini xolishlashtirish, uning yangi zamonaviy axborot texnologiyasi va pedagogic bilimlarni izlashga va ijobjiy faoliyatini oshirish
- O‘quvchilarning ta’lim sohasida erishgan yutuqlarini, o‘quvchi ta’lim muassasalarining mehnatini ochiq va oshkorligini ta’minalash.
- O‘quvchilarning individual-psixologik alohida shaxsligiga ta’sir etishga ko`maklashish.

<p><b>Reyting tizimi o`zida quyidagilarni aks ettiradi:</b></p> <p>O‘quvchilarning ta’lim faoliyatining uzlusiz nazorati, uning natijalari bilan ko`p balli baholash shakalasi qo`llanilishining differensiyasi, ularning barcha o‘quv ishlari bo`yicha yig`indisi, shaxsning erishgan yutuqlarini rag`batlantirish.</p>	<p><b>Reyting tizimini qo`llash tamoyillari:</b></p> <p>Tizimchilik; xolislik, ishlatishning oddiyligi, bir ma’nolik va tezkorlik, o‘quvchilarning psixi-fiziologik yoshi, tomonlarini hisobga olish, rivojlantirish, shaxsning faoliyatdagi birligi, mustaqillik va faollikni vujudga keltirish, ta’lim birligi, tarbiyalash va rivojlantirish, ochiqlik va oshkorlik, kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida DTS ni rivojlantirishni hisobga olish.</p>	<p>Reyting tizimini ishlab chiqishda asosiy talab bu o‘quvchilar bilim sifatini baholashdagi xolislik, o‘quvchilarning ta’lim olish faoliyati va o‘quvchilarning mehnatini rag`batlantirish.</p>
--	--	--

### **2-MAVZU. Test tuzish va test sinovlarni o’tkazish uslubiyoti.**

(ma’ruza – 2 soat)

#### **2.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi**

<i>Mashg‘ulot shakli</i>	<i>Mavzu bo‘yicha ma’ruza</i>
<i>Ma’ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Test asosida tekshirish.</li> <li>2. Test turlari.</li> <li>3. Kompyuter asosida test olish. ARM test.</li> <li>4. Kompyuter asosida test olish uslubi.</li> </ol>

<i>o'quv maqsadi</i>	<i>mashg'ulotining</i>	Test tuzish, test turlari haqida tushuncha berish. Kompyuter asosida test olish tasnifini berish.
<i>Tayanch iboralar</i>	<i>tushuncha va</i>	Test, ARM test, eslash testi, to'ldirish testi, tanlov testi, alternativ, ko'p tanlovlari, kesishuvchi tanlovlari.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>		<i>o'quv faoliyati natijalari:</i>
Test tuzish va test asosida tekshirish haqida tushuncha berish.		Test tuzish va test asosida tekshirish haqida tushunchaga ega bo'ladilar;
Test turlari haqida tushuncha berish.		Test turlari: eslash testi, to'ldirish testi va tanlov testi va ularning tuzilishi, bir biridan nimasi bilan farq qilishi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.
Kompyuter asosida test olish uslubiyotiga ko'ra tasnifi berish.		Kompyuter asosida test olish uslubiyoti haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar.
<i>o'qitish vositalari</i>		<i>ma'ruza matni, tarqatma material, kompyuter slaydlari, doska</i>
<i>o'qitish usullari</i>		ma'ruza, tushuntirish, instruksiya berish, namoyish, blis-so'rov, "Aqliy hujum", B/B/B (Bilaman/ Bilmoqchiman/ Bilib oldim) usuli
<i>o'qitish shakllari</i>		frontal, kollektiv ish
<i>o'qitish sharoiti</i>		<i>kompyuter, multimedia proyektor (yoki proyektor va LCD panel)</i>

### **Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari	O'qituvchi faoliyatining mazmuni	Talaba faoliyatining mazmuni
1-bosqich.  Mavzuga kirish (10 min)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi tushuntiriladi	Mavzu nomini yozib oladilar
	1.2. Blis-so'rov usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi. (1-ilova)	Savollarga javob beradilar
2 -bosqich.  Asosiy bo'lim (60 min)	2.1. Mavzu rejasining 1 va 2- savolini yozdiradi va tayanch tushunchalar bilan tanishtiradi.(2-ilova)	Mavzu rejasini yozib oladilar  Tinglaydilar.
	Mavzuning 1- va 2- reja savollari bo'yicha "Aqliy hujum" uyuştilriladi. Har bir talaba fikri tinglanadi. Har bir savol muhokamasidan so'ng to'g'ri fikrlar tasdiqlanadi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi. (3-ilova)	Tinglaydilar ."Aqliy hujum" da ishtirok etadilar
3-bosqich.  Yakunlovch	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatalish mumkinligi ma'lum qiladi.	Savollar beradilar

i (10 min)	<p>3.2. Mavzu bo'yicha mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar beradi.</p>	<p>Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlarni yozib oladilar</p>
	<p>3.3. Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi</p>	<p>Yozadilar</p>
	<p>3.4. Mavzuning keyingi savollari bo'yicha tayyorlanib kelish topshiriladi .</p>	<p>Yozadilar</p>

**Bilimlarni jonlantirish uchun savollar**

1. Test deganda nimani tushunasiz?
2. Testlarning qanday turlari mavjud?
3. Qanday qilib testni to`g`ri tuzish mumkin. Misol keltiring.
4. Test olish bo`yicha qanday ARM larni bilasiz. Ularni solishtiring.

**1-mavzu. Test tuzish va test sinovlarni o'tkazish uslubiyoti.****Reja:**

1. Test asosida tekshirish.
2. Test turlari.
3. Kompyuter asosida test olish. ARM test.
4. Kompyuter asosida test olish uslubi..

**Tayanch iboralar**

Test, test sinovlari turlari, test sinovlarini o'tkazish, kompyuter asosida test olish, ARM test, eslash testi, to`ldirish testi, tanlov testi, alternativ, ko`p tanlovli, kesishuvchi tanlovli.

**Ma'ruzaning mazmuni bo'yicha ko'rgazmali slaydlari**


Test sistemasi o`quvchilarini baholashning boshqa ko`rilgan uslublariga qaraganda qanday afzallikka ega. Undan foydalanish mohiyati nimada?

1. Barcha o`quvchilarga teng sharoit yaratiladi (vaqt hisobida ham, test savollarini tanlash hisobida ham)
2. Ma'lum vaqt ichida ham o`quvchilarning keng doirasini ham mavzuning to`liq doirasini qamrab olish mumkin.
3. Berilgan savollarda tasodifiylik elementlari kamayadi, bu esa imtixon oluvchining noxolisligini yo`qqa chiqaradi.
4. Imtihon oluvchi va topshiruvchi o`rtasida subyektiv fikrini yo`qqa chiqaradi.
5. Tekshirishga vaqt va kuch sarflash kamayadi, shu bilan birga o`qituvchi va o`quvchi ustida nazoratni yengillashtiradi.
6. Test javoblariga mashina tomonidan tezda statik ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo`ladi, chunki savol va javoblar standart shaklga ega.

Testlarni bir qancha turlari mavjud: -eslash va to`ldirish uchun testlar.

**-tanlov testlar**

**Tanlov testlari o`z navbatida quyidagi testlarga bo`linadi:**



#### 2.4-ilova

BBB jadvali		
Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

#### 2.5-ilova

Blis- so‘rov
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kompyuterlarda test olishning qanday afzalliklari va kamchiliklari bor.</li> <li>2. Eslash va to`ldirish testlarining bir-biridan farqi nimada?</li> <li>3. Eslash va alternativ testlarining farqi?</li> <li>4. Ko`p tanlovli va kesishuvchi tanlovli testlarning qiyosiy tahlil qiling?</li> <li>5. Alternativ va ko`p tanlovli testlar bir-biridan qanday farqlanadi?</li> </ol>

#### **4-MAVZU. Informatikaga oid yangi axborot texnologiyasi vositalari va ularidan foydalanish usullari.**

(ma'ruza – 2 soat, amaliy mashg`ulot – \_\_ soat)

##### **4.1 . Ma'ruzani olib borish texnologiyasi**

<i>Mashg`ulot shakli</i>	Mavzu bo'yicha ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Yangi axborot texnologiyalari haqida tushuncha. 2. Axborot texnologiyalaridan foydalanish. 3. Namunaviy dars ishlanmasi bilan tanishish.
<i>o'quv mashg`ulotining maqsadi</i>	Informatikaga oid yangi axborot texnologiyasi vositalari va ularidan foydalanish usullari haqida yangi bilimlar berish.
<i>Tayanch tushuncha va iboralar</i>	Informatika, axborot texnonlogiyalari, operatsion tizim, qobiq dastur, fayl, katalog, interfeys
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>o'quv faoliyati natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Yangi axborot texnologiyalari haqida tushuncha beradi;</li> <li>• Informatikaga oid yangi axborot texnologiyasi vositalari haqida tushuncha beradi,</li> <li>• Namunaviy dars ishlanmasi bilan tanishadi va ahamiyati haqida ma'lumot beradi.</li> </ul> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Yangi axborot texnologiyalari haqidaga ma'lumotga ega bo'ladilar;</li> <li>• Informatikaga oid yangi axborot texnologiyasi vositalari haqida tushunchaga ega bo'ladilar;</li> <li>• Namunaviy dars ishlanmasi bilan tanishadi va ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'ladilar, ishlanma asosida dars ishlanmasi tayyorlaydilar.</li> </ul>
<i>o'qitish vositalari</i>	ma'ruza matni, kompyuter, kompyuter slaydlari, doska
<i>o'qitish usullari</i>	ma'ruza, tushuntirish, instruksiya berish, namoyish, blis-so'rov, diagramma- Venna
<i>o'qitish shakllari</i>	frontal, kollektiv ish
<i>o'qitish sharoiti</i>	kompyuter, multimedia proyektor (yoki proyektor va LCD panel)

##### **Ma'ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari	o'qituvchi faoliyatining mazmuni	Tinglovchi faoliyatining mazmuni
1-bosqich.	1.1. o'quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.	Mavzu nomini yozib oladilar
Mavzuga kirish (10 min)	1.2. Blis-so'rov usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni sanab berishni so'raydi. (1-ilova)	Tushunchalarni sanab beradilar

2 -bosqich Asosiy bo‘lim (60 min)	2.1. Mavzu rejasini yozib oladilar. Tinglaydilar.
	2.2. Ma’ruza rejasining 1-3 punktlari bo‘yicha tushuntiradi, xar bir punkt nihoyasida umumlashtirib boradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi. (3-ilova)
	2.3. Tayanch iboralarga qaytiladi. Tinglovchilar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi. Mavzuga oid bo‘lmagan iboralar olib tashlanib, kerakli tushuncha va iboralar qo’shiladi.
3-bosqich. Yakunlovchi (10 min)	3.1. Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo‘yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligini ma’lum qiladi.
	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi.
	3.3. Mavzu bo‘yicha mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar beradi.
	3.4. Mavzu bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro‘yxatini beradi.
	3.5. Keyingi mazvu bo‘yicha tayyorlanib kelish uchun savollar beradi (tayanch ibora va tushunchalar)

#### **Bilimlarni jonlantirish uchun savollar (blis-so‘rov)**

1. Yangi axborot texnologiyalari haqida tushuncha bering.
2. Axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari ayting?.

#### **4-mavzu. Informatikaga oid yangi axborot texnologiyasi vositalari va ulardan foydalanish usullari**

##### **Reja:**

1. Yangi axborot texnologiyalari haqida tushuncha.
2. Axborot tehnologiyalaridan foydalanish.
3. Namunaviy dars ishlanmasi bilan tanishish.

#### **Tayanch iboralar**

Informatika, axborot texnonlogiyalari, operatsion tizim, qobiq dastur, fayl, katalog, interfeys

No	Mashg’ulotlar mavzusi	Ma’ruzalar	Bilimlarni tekshirish
1.	Axborot tizimlari va ularning ta’minoti. Axborot tizimlarining turlari.	2 soat	

2.	Axborot texnologiyasi tushunchasi. Zamonaviy axborot texnologiyalari- dan foydalanish.	2 soat	2 soat
	Jami:	4 soat	2 soat

### 3.4.1-ilova

#### Mavzu bo`yicha namunaviy dars ishlanmasi namunasi

**Maqsad:** Axborot tizimlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan asosiy g'oyalarini bayon qilish, tizimlarning mavjud turlarining har xilliligi va ta'minoti bilan tanishtirish.

**Materiallar:** Mavzu bo'yicha jadvallar yoki taqdimot slaydlari, «Informatika va axborot texnologiyalari» elektron multimedaviy darsligi.


**Vaqt:** 2 akademik soat.

**Ko'rinishi:** ma'ruza.

**Mashg'ulotning borishi:**

1. Tashkiliy qism.
2. O'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi.
3. Mazkur mavzuning nazariy materiali o'kuvchilar uchun yangi bo'lganligi sababli, o'qituvchi o'zi nazariy materialni yetarli darajada sxemalardan, ularning jadvali yoki Power Point dasturining taqdimot slaydlari ko'rinishidan foydalangan xolda tushuntiradi.

Axborot tizimlari ta'minotini tushuntirishda o'qituvchi o'quvchilarning apparat va dasturiy ta'minoti haqida bilimlariga suyangan holda o'quvchilarning javoblarini to'ldirish va kengaytirishi mumkin.



O'qituvchi mashg'ulotni «BESH DAQIQALIK ESSE» interaktiv o'qitish texnologiyasidan foydalanib yakunlashi mumkin. Bunda o'qvchilardan quyidagi vazifalarni bajarishlari so'raladi:

1. Mazkur mavzuda ularga nima yoqdi?
2. O'zlari javob topolmagan birorta savolni yozib berish.

Demak, axborotni qayta ishslash jarayonini material resurslarini qayta ishslash texnologiyasi kabi qabul qilishimiz mumkin. Quyida axborot texnologiyasi sxemasi qandaydir material resurslarni qayta ishslash texnologiyasiga o'xshash tarzda ko'rsatilgan:



Quyida axborot texnologiyalarining turkumlanishning bir nechta turini ko'rib chiqamiz.

I. Ma'lumotlarni qayta ishslash jarayonlari va masala turiga karab.

1-bosqich. 50-yillarda axborot texnologiyalari ish xaqining xisobotlarini qayta ishslashga mo'ljallangan edi va ular buxgalterlik, elektromexanik, schyot mashinalarida amalga oshirilar edi.

2-bosqich. 60-yillarda axborot texnologiyalari bo'lган kuz karash 8 ancha o'zgardi. Axborot kina parametrlar bo'yicha periodlik xisobot uchun ishlatila boshladi.

3-bosqich. 70-yillar oxiri 80-yillar boshida axborot texnologiyalari yechim qabul qilish jarayonini qo'llab quvvatlovchi va tezlashtiruvchi boshqarish nazorati vositasi xisobida keng qo'llanila boshladi.

4-bosqich. 80-yillar oxirida Axborot texnologiyalarini qo'llanish konsepsiysi yana o'zgardi. U ma'lumotning strategik manbasiga aylandi.

II. Jamiyatni axborotlash yo'lidagi muammolar bo'yicha turkumlash.

1-bosqich. 60-yillar qurilma qurollarining cheklangan imkoniyatlar sharoitlarida katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishslash muammosi bilan harakterlanadi.

2-bosqich. 70-yillar IBM/360 rusumli EXMLar tarqalishi bilan bog'liq. Bu vaqt muammosi qurilma vositalarini rivojlanishi satxidan dasturiy ta'minotini past bo'lishi.

3-bosqich. 80-yillarda kompyuter mutaxassis bo'lмаган foydalanuvchilarning quroliga aylandi. Muammo – foydalanuvchi talabini maksimal darajada qoniqtirish va unga mos keluvchi kompyuter bilan ishlovchi interfeysni yaratish.


4-bosqich. 90-yillar tashkilotlararo aloqasi zamonaviy texnologiyasining yaratilishi bilan harakterlanadi.

O'qituvchi IT turlarini konkret misollarda ko'rsatib, ularning tarkibini aniqlaydi:

- multimedya texnologiyasi;
- internet texnologiyasi;
- elektron pochta;
- audio pochta;
- bir tildan boshqa tilga tarjima qilish(o'girish) texnologiyasi;
- ma'lumotlar bazasi texnologiyasi;
- skanerlash texnologiyasi va hokazo.


## **Amaliy mashg`uloti topshiriqlari**

**Topshiriq №1** Bosh menu va uning tarkibini o`rganing.



## Topshiriq №2

Windows XP operatsion tizimining ishchi stoli tuzilishini o`rganing. Uning asosiy ob`ektlarini aniqlang. Ishchi stolining foni va «Zastavka» sini o`zgartiring.




## Topshiriq №3

Vazifalar paneli (Panelъ zadach) ni sozlang, ekranda vaziyatini o`zgartirishni o`rganing.




## Topshiriq №4

Boshqaruv paneli (Panelъ upravleniya) yordamida sichqon ko`rsatkichi tezligini, uning standart ko`rsatkichlarini o`zgartirishni o`rganing.




### Topshiriq №5

«Spravka i podderjka» buyrug'i orqali klaviatura va uni sozlash haqidagi m a'zumotni qidirib toping.



### Topshiriq №6

«Nayti» buyrug'i orqali kompyuterda mavjud biror bir faylni qidirib toping.




### Topshiriq №7

«Moy kompyuter» oynasi tuzilishini o`rganing:

- C diskda qanday fayllar mavjudligini tekshiring;
- D diskda qanday fayllar mavjudligini tekshiring;
- «Disk A» buyrug`i orqali ixtiyoriy disketadagi mavjud tarkibni ko`rib chiqing; disketada mavjud fayl nusxasini kompyutering ishchi stoliga joylashtiring va aksincha, ishchi stoldagi faylni diskka yozing.

A diskni formatlashni o`rganing. Disk formatlanganda undagi ma'lumotlar o`chishini unutmang



### Topshiriq №8


«Moi dokumenty» oynasi bilan ishlashni o`rganing:

- oyna orqali turli papkalarda mavjud fayllar ro`yxatini ko`rib chiqing;
- C papkada joylashgan fayldan nusxa olib, Windows XP ishchi stoliga joylashtiring;
- Fayllar ro`yxatidan bir nechta fayllarni o`chirib tashlang;
- Fayl nomini o`zgartiring.

### Topshiriq №9

«Provodnik» oynasining tuzilishini o`rganing.


Oynada papka va fayllar ro`yxatini jadval ko`rinishida ifodalang;



### Topshiriq №10

«Korzina» ning funksiyasini o`rganing:

- keraksiz fayllarni «Korzina» ga tashlang
- «Korzina» dagi faylni qaytib tiklang;
- «Korzina»ni “tozalang”



### Topshiriq №11 Windows XP muhitida oynalar bilan ishlashni o`rganing:

- Ixtiyoriy papka (fayl, dastur) oynasini oching. Vaziyatini va o`lchamlarini o`zgartiring;
- «Svernutъ» amali orqali Vazifalar panelida joylashtiring ;
- Oynani yoping.

#### O`z – o`zini nazorat qilish uchun materiallar

1. MS Windows XP operatsion tizimi ishchi stolining asosiy ob`ektlarini sanab bering.
2. MS Windows XP operatsion tizimi ishchi stoli fonini o`zgartirish qanday amalga oshiriladi?
3. «Zastavka» deganda nimani tushunasiz?
4. Katalog nima?
5. Kompyuter qurilmalarini sozlash qanday amalga oshiriladi?
6. «Korzina» nima uchun kerak?